



NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- may holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma‘lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

3

19 352



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 095



Oilaviy korxonona

141



Unitar korxonona

7 286



Xususiy korxonona

22



Aksiyadorlik jamiyati


498



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-aprel oylarida)






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 1 127 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 468 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1095 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 459 taga yoki 1,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 156 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- may holatiga ko'ra 19 889 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 509 taga yoki 129,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 19 352 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 320 taga yoki 128,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 815 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 455 taga yoki 133,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- may holatiga ko'ra 274 tani tashkil etib, ulardan 266 tasi yoki 97,1 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 26 taga yoki 110,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga, birlikda)



Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

8

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	55	43	12
Qozog'iston Respublikasi	12	8	4
Xitoy Xalq Respublikasi	47	27	20
Qirg'iz Respublikasi	10	9	1
Tojikiston Respublikasi	9	7	2
Turkiya Respublikasi	34	14	20
Hindiston Respublikasi	11	3	8
Janubiy Koreya Respublikasi	30	22	8
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	4	2	2

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)


10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	266	171	95
Namangan shahri	79	50	29
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	28	22	6
Namangan	17	16	1
Norin	10	6	4
Pop	27	17	10
To'raqo'rg'on	18	9	9
Uychi	16	14	2
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	22	13	9
Chust	20	11	9
Yangiqo'rg'on	12	6	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 79 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 29,7 %), Kosonsoy 28 ta (10,5 %) Pop 27 ta (10,2 %), Chortoq 22 ta (8,3 %), Chust 20 ta (7,5 %), To'raqo'rg'on 18 ta (6,8 %) hamda Namangan 17 tani (6,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (33,9 %), Chust (8,4 %), Namangan (6,9 %), Uychi (6,6 %), Pop va To'raqo'rg'on (6,3 % dan), Kosonsoy (6,1 %) Uchqo'rg'on (5,7 %), Chortoq (5,5 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,8 %) hamda Mingbuloq (4,4 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)


2021- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (26,4 %), Chust (10,5 %), To'raqo'rg'on (8,3 %), Chortoq (7,6 %), Pop (6,9 %), Uychi (6,6 %), Norin (6,3 %), Kosonsoy va Mingbuloq (5,8 % dan), Namangan (5,6 %), Uchqo'rg'on (5,2 %) hamda Yangiqo'rg'on (5,0 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (38,0 %), Uychi (7,2 %), Pop (6,7 %), Namangan, Chortoq (6,4 %dan), Kosonsoy (6,1 %), Chust (5,4 %), Yangiqo'rg'on (5,2 %), Norin (5,1 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Uchqo'rg'on (4,9 %) va Mingbuloq (3,7 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2021- yilning yanvar-aprel oyida, birlikda)



2021- yilning yanvar-aprel oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda To'raqo'rg'on (33,3 %), Yangiqo'rg'on (14,1 %), Namangan shahri (11,5 %), Namangan (10,9 %), Chortoq (9,0%), Chust (5,7 %), Uchqo'rg'on (4,5 %), Kosonsoy (3,2 %), Mingbuloq hamda Uychi (2,6 % dan), Norin va Pop (1,3 % dan) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-aprel oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.